

## MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA BILISH JARAYONLARI RIVOJLANISHIGA XOS XUSUSIYATLAR

Xudoyberdiyeva Nilufar

Ibragimova Gulzoda

*TerDPI talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning bilish jarayonlari rivojlanishi va ularga xos xususiyatlar haqida fikr yuritilgan. Bu davning yetakchi faoliyati bo'lgan o'yinning ahamiyati va bilish jarayonlarini kuchaytirishdagi o'rni aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Bilish jarayonlari, ontogenetika, bog'cha yosh davri, xulq-atvor, obrazli xotira, o'yin, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, shaxs, tafakkur, nutq, xayol va boshqalar.

Yosh davrlari psixologiyasi fanida insonning tug'ilganidan vafot etgunga qadar bir qancha bosqichlarini o'rGANAMIZ. Ular orasida maktabgacha yosh davri psixologiyasi ayrim belgilari va xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bu yoshdagi bolalarning qiziquvchanligi va taqlidchanligi bilish jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi. Birgina bilish jarayonlari emas, balki bu yoshda ularning xulq-atvori ham yuzaga kela boshlaydi. Shunday ekan, bu davrni ontogenezning eng asosiy bosqichlaridan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Maktabgacha yosh davri 3 yoshdan 7 yoshgacha davom etadi. Bu davrni bog'cha yoshidagi davr, deb atasak ham bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyat va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bilish jarayonlaridan sezzilarga to'xtaladigan bo'lsak, bu yoshdagi bolalar ranglarni yaxshi ajrata ololmaydilar. Shuning uchun ham o'yinchoqlar rang-barang bo'ladi. Rangli o'yinchoqlar ranglarni o'rGANISHDA asqatadi. Bundan tashqari rasm chizish ham bolalarga ranglarni ajratishga yordam beradi. Bolalar rasmlarni idrok qilayotganlariga kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim.

Navbatdagi bilish jarayonlaridan diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'doshi hisoblanadi. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati ixtiyorsiz bo'ladi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bo'lsa ham, xonaga birov kirib qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertakdan chalg'iysi. Ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqatga aylantirishda bolani o'ziga jalb qila oladigan usullardan foydalanishimiz kerak. Bunda bizga ko'pincha o'yinlar muvofiq bo'ladi.

Bu yoshdagi bolalarning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda obrazli, ko'rgazmali xotira ustunlik qiladi. Ular ixtiyorsiz esda olib qoladilar va ixtiyorsiz esga tushira oladilar. Tajribalarga qaraganda, 3 yoshli bola ko'rgan taassurotlarini bir necha oygacha esda saqlab turishga qodirdir. Xotiraning o'sishiga o'yinlar, turli mashg'ulotlar, she'r, ertak, hikoya aytish va sayr paytida kuzatishlar yordam beradi. Bu yoshdagi bolalarning zehni o'tkir, xotirasi kuchli bo'ladi. Hatto, musiqa tinglaganda unga jo'r bo'lib kuylashadi, birpasda o'zi mustaqil kuylashga kirishadi. Chet tilidagi lug'atlarni oson o'rganib olishadi. Ammo ular

yodlagan ko'p so'zlarning ma'no -mazmunini yaxshi anglamagan bo'lishadi va yangi o'rgangan so'zlarini nutqda ishlatalishga qiynalishadi. Bugungi kunda ko'plab bog'chalarda ingliz tili, rus tili va boshqa xorijiy tillardan dars o'tiladi. Bolaning yoshligidan turli tillarni o'rganishi yaxshiku-ya, biroq ularning mazmun -mohiyatini bilmasa ne kerak? Bolaga ular uchun foydali bo'lgan bilimlarni ma' osiga tushunib esda olib qolishga o'rgatish lozim.

Bog'cha yoshidagi bolalarning tafakkuri juda tez rivojiana boshlaydi. Buning uch sababi mavjud:1) bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan kengayishi; 2) bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi; 3) bog'cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishidir. Yuqorida aytib optganimizdek, bu yoshdagagi bolalar o'ta qiziquvchan bo'ladilar. Ularni hayron qoldirgan, diqqatini tortgan narsa-buyumlarning nima ekanligini kattalardan tez-tez so'rashadi. Bu savollarning ko'payib borishi ular tafakkurining faollashayotganlaridan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki uning savoliga kattalar ahamiyat bermasa, undagi qiziquvchanlik so'na boshlaydi. Ko'pgina ota-onalar yoki ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, "ko'p mahmadona bo'lma", "Sen bu gaplarni qayerdan olding?", deb koyib beradi. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Bu esa uning kelajagiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi farzandlari bor ota-onalar o'z muammolarini aralashtrimagan holda bolalariga ko'proq e'tibor qaratishlari kerak. Ta'kidlab o'tganimizdek, tafakkurning rivojlanishiga nutq ham yordam beradi. Bog'cha yoshidagi bolalar ayrim so'zlarni talaffuz qilishga qiyalsa ham, anchagina so'zlarni bilishadi. Tadqiqodlarda aniqlanishicha, 2 yashar bolaning so'z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yashar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so'z zahirasi 4000 taga yetadi. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining o'sishi oilaning madaniy saviyasiga ko'p jihatdan bog'liq. Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, bog'cha yoshidagi bolalarning ba'zi hollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmaslik kerak. Bundan tashqari bolalar bilan to'g'ri talaffuz qilib, ravon til bilan gaplashish tilning chuchukligini tuzarishga yordam beradi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda xayol va tasavvur kabi jarayonlar ham yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bolalar xayolida yangi obra,larni kashf qiladi. Multifilmarda o'zi sevgan qahramonga o'xshagini keladi va ung taqlid qiladi. Taqlid qilish orqali u o'z ehtiyojlarini qondiradi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin hisoblanadi. O'yin bilish jarayonlarini o'stirishga ko'maklashadi. O'yinda bolaning berilib ishtirok etishi orqli ixtiyoriy diqqat rivojiana boshlaydi. Harakatli o'yinlarni takrorlash orqali tez esda olib qolishga kirishdilar. Jamoaviy o'yinlar bolaning nutqini o'stirishga, tafakkurini rivojlantirishga va tengdoshlari nilan munosabatga tez kirishishiga imkon beradi. Bola o'yin orqali o'zi sevgan kasb rolini ijro etadi. O'yinlar bolaning kelgusida shaxs sifatida shakllanishiga turtki bo'ladi.

Maktabgacha yosh davri eng muhim davrlardan biridur. Bu bosqichda bilish jarayonlarining takomillashib borishi tufayli kelgusida bolaning shaxs sifatida o'zligini namoyon qilishi yuzaga keladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda xulq-atvor, xarakter, va temperament kabi psixik jarayonlar ham namoyon bo'ladi. Ota-onalar bog'cha yoshidagi

farzandlarining nimaga ko'proq qiziqayotganligini va qaysi bilish jarayonlarida qiyinchiliklarga uchrashini aniqlab borishi maqsadga muvofiq.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Imonova, M., & Tojiyeva, D. (2024). PSIXOLOGIK XIZMATNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 950-952.
2. Imonova, M., & Muhammadova, D. (2024). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING USTUVORLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 907-912.
3. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.
4. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.
5. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.
6. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
7. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya-qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.
8. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniylatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.
9. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.
10. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
11. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблиновых отношений в когнитивном развитии детей. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 447-453.
12. Imonova, M., & Xoltorayeva, M. (2024). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING ZARURIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 903-906.
13. Imonova, M. (2024). AMALIYOTCHI PSIXOLOG KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA RAQAMLI

TEXNOLOGIYALARNING ORNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 485-490.

14. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.
15. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.
16. Ашуррова, Ш. (2023). Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 67-71.
17. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 418-421.
18. Неъматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. Студенческий вестник, (5-1), 62-63.
19. Ne'Matullayeva, S. (2022). MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO'LLASHGA OID QARASHLAR. Science and innovation, 1(B4), 444-449.